

HARBIY PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI**Abdurasulov Jahongirmirzo****ChDPU Pedagogika fakulteti****Pedagogika va psixologiya yo'nalishi****1-bosqich magistranti****jmra9923@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10704094>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va pedagogik mahorning shakllanish bosqichlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Harbiy pedagogika, Ofitser, pedagogik mahorat, o'qituvchi, psixologiya, falsafa.

Harbiy xizmat davomida o'z bo'ysunuvchilarini Vatanimizning munosib himoyachisi qilib tarbiyalashda ofitser, serjant zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklatiladi. U o'z bo'ysunuvchilariga nafaqat harbiy fanlar bo'yicha saboq beradi, malakali harbiy mutaxassis darajasiga ko'taradi, balki ularni inson sifatida yanada kamol topishiga o'z hissasini qo'shadi. Shu sababli ofitser va serjantdan o'zining harbiy mutaxassisligidan chuqur bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan birga, pedagogika, psixologiya, falsafa va boshqa ijtimoiy fanlardan ham har taraflama bilimga, tushunchaga hamda keng dunyoqarashga ega bo'lishi talab etiladi. Harbiy pedagogika fani yakka holda mukammallikka erisha olmaydi. U fan sifatida o'zi rivojlanishi bilan birga boshqa fanlar yutuqlaridan ham foydalanadi va mazmunan boyib boradi. Hozirgi kunda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqida ma'lumot beruvchi nazariyalar muayyan darajada harbiy pedagogika fani uchun manba bo'ladi. Boshqa fanlar kabi harbiy pedagogika ham har bir insonning, shu jumladan harbiy xizmatchi shaxsining ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi. Tabiat va jamiyatning rivojlanish qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi va o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib boradi.

Ana shu nuqati nazardan harbiy pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa – shaxs, jumladan harbiy xizmatchi shaxsi rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Tarix – xalqimiz tarixi, buyuk mutafakkirlari, olimlari, sarkardalarining hayoti va jasoratlari misolida harbiy xizmatchilarni tarbiyalash, shuningdek pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining xususiyatlarini inobatga olish, xalq pedagogikasi g'oyalaridan bo'ysunuvchilarni tarbiyalash jarayonida unumli foydalanishga yordam beradi.

3. Sostiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika - shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong, ma'naviy-axloqiy va kasbiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni harbiy pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Iqtisod – mamlakat mudofaasini ta'minlash maqsadida Qurolli Kuchlarni zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlash, harbiy mutaxassislarni tayyorlash, harbiy ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

7. Fiziologiya - ta'lim-tarbiya jarayonida harbiy xizmatchilarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

8. Tibbiyot – harbiy xizmatchilarning salomatligini va hayotini muhofaza qilish, harbiy xizmatning inson hayoti uchun havfsiz sharoitlarini yaratish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar asoslarini shakllantiradi.

9. Psixologiya – harbiy xizmatchi shaxsida ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish, ularni mamlakatni qurolli himoya qilish, turli jangovar sharoitlarda aniq va tezkor harakat qilishga o'rgatish uchun ruhiy tayyorlashga imkon beradi.

10. Maxsus harbiy fanlar – harbiy mutaxassislarni tayyorlash, ularga ta'lim berish, ko'nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirish hamda kasbiy mahoratlarini oshirishni ilmiy, pedagogik va metodik jihatdan ta'minlaydi.

Ofitser ta'lim-tarbiya borasida qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, nima qilishi, qanday yo'l tutishi, nimalarga e'tibor berishi lozim? Bu va shu kabi boshqa savollarga ma'lum darajada harbiy pedagogika fani javob beradi.

Har sohada bo'lgani kabi, harbiy mutaxassislarni tayyorlashda ham katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ofitser kadrlarga qo'yiladigan talablar oshib bermoqda. Chunki hozirgi ofitser faqat ma'lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo'lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual salohiyatga ega bo'lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli inson, o'z bilimi, shaxsiy namunasi bilan o'z bo'ysunuvchilariga tarbiya va ta'lim bera oladigan qobiliyatli va mahoratli pedagog bo'lishi zarur.

Ofitserlarning professional faoliyatida bo'ysunuvchilarga rahbarlik qilish, ularga ta'lim berish va tarbiyalash asosiy o'rin egallaydi. Bunda ofitser jangovar va siyosiy tayyorgarlikni, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ham har bir ofitserdan yuksak pedagogik mahorat talab qilinadi.

Pedagog o'z fanini chuqur biladigan, fan va san'atning tegishli tarmoqlari bilan yaxshi tanish bo'lgan, umumiy va soha psixologiyasini amalda yaxshi tushunadigan, ta'lim va tarbiya metodikasini yaxshi egallagan o'z ishining ustasi, yuksak madaniyatli mutaxassisdir.

Ofitserning pedagogik mahorati – uning psixologik-pedagogik tafakkuri, o'z xizmat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimi, malakasi va ko'nikmalari hamda hissiy-irodaviy sifatlari birligi bo'lib, u ofitser shaxsining yuksak taraqqiy etgan g'oyaviy, kasbiy, axloqiy, jangovar, tashkilotchilik va harbiy pedagogga xos xislatlari bilan uyg'unlikda ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat murakkab tarkibga ega. U harbiy-pedagogik faoliyat tarkibi va mazmuni bilan belgilanadi.

Tarkibiy jihatdan pedagogik mahorat o'qituvchi (metodist) mahorati va tarbiyachi mahoratiga ajratiladi.

O'qituvchi (metodist) mahorati ofitserning harbiy-pedagogik jarayonning qonuniyatlarini, xususiyatlarini, shaxsiy tarkibga ta'lim berish jarayonining maqsad va vazifalarini chuqur bilishida namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahoratning bu elementi ofitserning o'z mutaxassisligini, harbiy ishni, psixologiya va pedagogika fanini, didaktika prinsiplarini va metodlarini, o'z o'quv fani metodikasini chuqur bilishga, boshqa fanlardan tushunchaga, keng dunyoqarashga ega bo'lishiga asoslanadi. Bilimlarni egallash, harbiy mutaxassis uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonining mohiyatini chuqur bilish va tushunish mahoratli pedagogga xos xususiyatdir.

Hayotning ob'ektiv sharoitlari, ilmiy-texnik taraqqiyot, xizmat davomida murakkab harbiy mutaxassislikni egallash va doimiy ravishda takomillashtirib borish, zamonaviy qurol-yarog' va jangovar texnikani o'rganish, katta axborot oqimini tahlil qilish kabi dolzarb vazifalar pedagogik mahoratni takomillashtirishning zarur shartlari sifatida ofitserdan ta'lim jarayoni psixologiyasini, harbiy xizmatchini va harbiy jamoani hozirgi zamon urushida muvaffaqiyatli harakat qilishga tayyorlash qonuniyatlarini bilishni va amal qilishni talab etadi.

Tarbiyachi-ofitser mahorati harbiy xizmatchilar tarbiyasining qonuniyatlarini, prinsiplarini, metodlarini, maqsad va vazifalarini, asosiy yo'nalishlarini bilishi va bu bilimlardan amalda to'g'ri foydalana olishi bilan ifodalanadi.

Tarbiyaviy ishda pedagogiki ta'sir ob'ektini, pedagogik ta'sir etish vositalarini, tarbiya prinsiplarini har tomonlama va chuqur bilsagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Shuning uchun harbiy-pedagogik mahoratning yuksak cho'qqilariga erishmoqchi bo'lgan ofitser harbiy xizmatchi shaxsi va harbiy jamoa psixologiyasini, bo'ysunuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, shuningdek axloqiy va huquqiy normalarni, umumharbiy nizomlar talablarini, Mudofaa vazirining buyruq va direktivalarini bilishi va amaliy faoliyatda, kundalik turmushda qo'llay olishi lozim. O'zining ichki tarkibi bo'yicha tarbiyachi mahorati yuksak darajada rivojlangan oddiy va murakkab aqliy ko'nikmalar va malakalar, psixologik-pedagogik bilimlar asosida shakllangan va rivojlangan hissiyotlar va iroda, amaliy faoliyat va odamlar bilan muloqot davomida shakllangan xislatlar, dunyoqarash birligidir.

Ofitserning pedagogik mahorati o'zining mezonlariga ega. Ular quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik faoliyatda qo'llanilayotgan usul, vosita, shakl va metodlarining ilmiy asoslanganligi.
2. Pedagogik amaliyotning pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar yangiliklari va yutuqlari bilan hamohangligi.
3. Uzoq vaqt davomida, hatto o'zgarib turuvchi sharoitda ham ijobiy natijalarning barqarorligi, dolzarbligi, optimalligi va kelajakka yo'naltirilganligi.
4. Pedagogning o'zining va boshqalarning ilg'or ish tajribasini umumlashtira olishi va ommalashtirishi.
5. Pedagogning o'z vazifasiga nisbatan yuksak mas'uliyatliligi.
6. Pedagogning tashkilotchiligi, talabchanligi va hokazo.

Ko'rsatib o'tilgan mezonlardan kelib chiqqan holda ofitser pedagog sifatida quyidagi kasbiy sifatlarga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatish mumkin:

- ◆ ilmiy bilimlar tizimini shakllantira bilishi;
- ◆ o'z ilmiy dunyoqarashini doimo kengaytira borishi;
- ◆ o'z kasbining mashaqqatli, sharaflilik ekanini tushunishi va bundan faxrlanishi;
- ◆ o'qib o'rganishga malaka va ko'nikma hosil qilish;

- ◆ bo'ysunuvchiga psixologik-pedagogik tashxis qo'ya bilishi;
- ◆ tashkilotchilik mahoratiga ega bo'lishi;
- ◆ ijodkor va tashabbuskor bo'lishi;
- ◆ axborotlarni yig'a bilishi va tarqata olishi;
- ◆ to'plagan tajriba va bilimlarini hayotda ishlata bilishi;
- ◆ bilim olishga ehtiyojining kuchli bo'lishi;
- ◆ ta'lim oluvchiga nisbatan pedagogik talabchanlikka ega bo'lishi;
- ◆ o'z kasbiga doimo fidoyi bo'lishi va boshqalar.

Sanab o'tilgan sifatlarining mavjudligi ofitserning pedagog sifatida kasbiy takomillashuvining zaruriy shartlaridan hisoblanadi.

Pedagogik mahorat ko'p qirrali va keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq vaqt davom etadi. Ofitserning harbiy-pedagogik sifatlarini va professional-pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish ichki qarama-qarshiliklarga ega hamda ko'pgina omillarning ta'sirida kechuvchi jarayondir. Bu jarayon o'z-o'zidan kechmaydi, balki boshqariladigan bo'lib, birinchi navbatda har bir ofitserning bilimi saviyasi, dunyoqarashi, aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishi darajasiga bog'liqdir.

Pedagogik mahoratining shakllanishi va takomillashuvi ofitser shaxsining professional, ijtimoiy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishidagi qarama-qarshiliklarni engish orqali erishiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu qarama-qarshiliklar quyidagilardan iborat:

- ◆ ofitserning bilimlari, umumiy ma'lumotlilik va xulqiy tajribasi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;
 - ◆ ofitserning nimani va qanday bajarish kerakligini tushunishi va amaliy harakatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;
 - ◆ turli sharoitlar va vaziyatlarda ofitserning o'zini tutishi bilan bog'liq qarama-qarshiliklar;
 - ◆ pedagogik taktining rivojlanganligi darajasi to'g'risidagi ofitserning shaxsiy bahosi va boshliqlari, hamkasblarining fikri, bergan bahosi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va boshqalar.
- Bunday qarama-qarshiliklarni hal etishning muhim sharti sifatida kasbiy shakllanish va rivojlanishning murakkab jihatlarini, ofitser uchun zarur bo'lgan sifatlarini tarbiyalash vazifalarini hal etishga xalaqit berayotgan omillarni bartaraf etish yo'llarini tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tomonidan to'g'ri tushunishni ko'rsatish mumkin.

Ofitserning professional sifatlarining, pedagogik mahoratining shakllanishiga jamiyatdagi turmush tarzi, kundalik faoliyat, jamoadagi ma'naviy-ruhiy muhit va boshqa omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ofitser hayoti va faoliyatini tahlil qilgan holda, bu jarayon bir necha bosqichlarni o'z ichiga olishini ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Ofitserlarda harbiy-pedagogik sifatlarining shakllanishiga va rivojlantirilishiga ular oliy harbiy o'quv yurtida o'qish davrida asos solinadi. Kursantlarda bo'lajak harbiy-pedagogik faoliyatga nisbatan moyillik va qiziqish shakllantiriladi. Bu davrda harbiy profesional-pedagogik faoliyatning, ta'lim-tarbiya ishlari jarayoni metodikasining barcha masalalari bo'yicha zarur bo'lgan bilimlar asoslari beriladi, boshlang'ich malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi.

2. Ofitserlar pedagogik mahoratini takomillashtirishda ularning harbiy qismlardagi xizmat faoliyatlarini amalga oshirish jarayoni muhim o'rin egallaydi.

Ofitser xizmatining birinchi yillari ularning o'qituvchi va tarbiyachi sifatida shakllanishidagi muhim va mas'uliyatli davri hisoblanadi. Chunki u endi egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llashi lozim bo'ladi va buning uchun shaxsiy javobgarligini his etadi. Ofitserning pedagogik mahoratini takomillashtirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Ofitserlarni kerakli ilmiy bilimlar bilan qurollantirish.
2. Turli vositalar va metodlar yordamida ofitser shaxsiga maqsadli va tizimli pedagogik ta'sir ko'rsatish.
3. Harbiy qismdagi xizmat va turmushni harbiy nizomlar talablari asosida tashkil etish.
4. Ofitserlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga kengroq jalb etish.
5. Ofitserning o'z bilimlarini, umumiy madaniy saviyasini, harbiy-pedagogik mahoratini oshirish maqsadida o'z ustida mustaqil ishlashini, o'z faoliyati, xulqini nazorat qilishini tashkil etish va boshqalar.

Bunday tadbirlarni rejali asosda va doimiy ravishda amalga oshirib borish ofitserning pedagogik mahorat cho'qqisini tezroq egallashiga zamin yaratadi.

XULOSA

Ta'lim tizimidagi isloxlardan ko'zda tutilgan maqsadlardan asosiysi yangi ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarda, aniqrog'i, bozor munosabatlari muhitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning kafolatli poydevorini yaratishdir. Ta'lim muassasi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini oshirishga har qachongidan ongli munosabatda bo'lish faqat sub'ektiv holat va ob'ektiv zarurat emas, balki **raqobatbardoshlik** sharti sifatida e'tirof etilishi kerak.

References:

1. Mirziyayev SH.M "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T.; O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyayev SH.M "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi " T.; O'zbekiston, 2017.
3. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz–T.: O'zbekiston, 1999.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.
5. A.Sotib-Oldiev, A.Karimjonov «Harbiy pedagogika» Sharq nashriyoti, Toshkent 2005y.
6. Q.A-Sh.Satib-Aldiev «Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari» TDPU nashriyoti,Toshkent2003y.
7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7244584>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti:
9. www.press-service.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portali: www.gov.uz
11. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2004,
12. O'zbek internet resurslarining katalogi:
13. Ziyonet